

OGAHIY HAYOTI VA IJOD YO‘LI

Aziza NE‘MATOVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878393>

Annotatsiya: Ushbu maqola Ogahiyning hayot yo‘li, ijodi va boy adabiy merosi, siyosiy va ma‘rifiy qarashlari haqida bo‘lib, unda

Kalit so‘z va iboralar: Ogahiy, mirob, devon, tarixnavis, qo‘lyozma, nazm, nasr, tarjima asarlar.

Ogahiy – o‘zbek shoiri, tarixchi, tarjimon. Mirob oilasida tug‘ilgan. Xiva madrasalarida tahsil ko‘rgan. Arab, fors, turk tillarini puxta egallagan. Xorazmning mashhur shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatlarida ishtirok etgan. Sharq klassik asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o‘rgangan. 1829-yilda amakisi va ustoz Munis vafot etgach, Xiva xoni Olloqulixon (1825—1842) Ogahiyning Munisning o‘rniga mirob etib tayinlagan. Shu davrdan e‘tiboran Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan shug‘ullangan. Qizg‘in ijtimoiy-siyosiy mehnat bilan mashg‘ul bir paytda otdan yiqilib, oyog‘i „shakarlang“ (shol) bo‘lib qolgan (1845). 1857-yildan miroblik vazifasidan iste‘fo bergan. Umrining oxirigacha moddiy muhtoj, g‘amgin, kasalmand ahvolda kun kechirgan.

Ogahiy 52-55 yoshlarida „Oshiqlar tumori“ devonini tuzib, unga bayoz to‘plamlaridan she‘rlar kiritib, dastlabki asarlarini puxtalik bilan tahrir qilgan. Shoir qalamiga mansub g‘azallar juda xilma-xildir. Ba‘zilarida sof ishq, boshqalarda so‘fiylik g‘oyalari, boshqalarda shaxsiy kechinmalar ulug‘lanadi. „Riyoz ud-davla“, „Zubdat ut-tavorix“, „Jomi ul-vakiati sultoniy“, „Gulshani davlat“ [2] va „Shahid ul-ikbol“ tarixiy asarlar muallifi. „Riyoz ud-davla“ asari Xorazmning 1825—1842-yillari tarixidan hikoya qiladi. „Zubdat ut-tavorix“da ham Xorazmning 1843—1846-yillardagi tarixi tasvirlangan. „Jomi ul-vakiati sultoniy“ Xorazmning 1846—1855-yillar tarixiga bag‘ishlangan. „Gulshani Davlat“ 1856—1865-yillardagi tarixni qamrab oladi. Ogahiyning so‘nggi asari „Shahid ul-iqbol“ 1865—1872-yillarga bag‘ishlangan. Uning o‘zbek va tojik tillaridagi she‘rlarida fuqarolik motivlari – voqelikdan norozilik, ikkiyuzlamachilikni qoralash jaranglaydi.

Ogahiy Nizomiy, Amir Xusraf Dehlaviy, Sa‘diy, Jomiy, Hiloliy va boshqalarning asarlarini o‘zbek tiliga she‘riy tarjimalari bilan mashhur bo‘ldi. Tarjima sohasida Ogahiy chinakam novator edi. Tarjimalar an‘anasi adabiyotlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta‘sirining murakkab jarayonining jihatlari hisoblanadi.

O‘zbek adabiyoti o‘zining beqiyos asarlari bilan Yevropa adabiyotidan farq qiladi butun dunyoga mashhurdir. Ajdodlarimizning ilm-fan va madaniyat sohasida yozib qoldirgan asarlari nafaqat Osiyo, balki Yevropada ham e’tirof etiladi.

Ilm-fan, san'at va adabiyotning o‘chog‘i bo‘lgan Xorazmning ulug‘ shoir-u allomalari haqida so‘z borganda, serqirra iste’dod egasi Muhammad Rizo Erniyozbey o‘g‘li Ogahiyning nomini tilga olish joiz.

Xalqimizning ma'naviy merosiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli shoir, olim, mohir tarjimon, davlat va siyosat arbobi, Muhammad Rizo Erniyozbey o‘g‘li Ogahiy 1809-yilning 17- dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida mirob oilasida dunyoga kelgan. Ogahiyning uyi Ko‘hna Arkdan taxminan 5,6 chaqirim masofada, Qiyot qishloqining Xiva, Qo‘shko‘pir yo‘lining chap tomonida joylashgan. Ogahiy otasidan erta yetim qolib, amakisi – zamonasining yetuk shoiri, xonning bosh mirobi Shermuhammad Munis Xorazmiy qo‘lida tarbiya topadi. Ogahiy amakisi bilan bomaslahat o‘ziga Ogahiy taxallusini tanlaydi. "Ogahiy" taxallusining ma'nosi "ziyrak", "ogoh", "xabardor" degan ma'nolarini anglatadi. Shoirning o‘zi bu haqida quyidagicha yozadi:

Ne tong ogoh bo‘lsa, Ogahiy ishqning siridan,
Onga behuda ermas osmondan bu laqab paydo.

Shoir yoshlik chog'idanoq ilmga chanqoqligi, shoir-u olimlar davrasida bo‘lishga intilishi bilan ajralib turgan. Maktabni tugatgandan keyin, madrasanishinlik ya'ni, o‘z davrining oliy ta'lim muassasasida tahsilni davom ettirgan. Ogahiy an'anaviy 7-8, 10-11 yoki 12-13 baytlik g'azallar yozish tartibini buzib, mazmun talabi bilan 20 baytlik va 23 baytlik g'azallar yozgan. Shoir tarixga oid asarlar yozib, Munisning bu sohadagi an'alarini yanada ham rivojlantirgan va yuksaklikga ko‘targan. Munis va Ogahiyning hammualliflikdagi "Firdavs-ul Iqbol" asari Xorazm tarixiga oid bo‘lsa-da, nafaqat o‘zbek xalqining tarixini o‘rganish jihatidan ahamiyatli, balki qardosh, qozoq, rus, tojik, turkman, eron xalqlarining ham madaniyati, san'ati, urf-odatlarini, psixologiyasi, shu xalqning kelib chiqishini o‘rganishda boy etnografik manba bo‘lib, xizmat qiladi. Ogahiy Xorazm xoni Olloqulixonga bag'ishlab “Riyoz-ud davla” asarini yozgan. Bu asarda Ogahiy o‘zi haqida shunday yozadi: “Yoshlik chog'larimdan har tarafdin boshimga balo tog'i yog'ildi, hamisha ko‘nglimda tinchsizlik va ta'bimda xon hukmi surar edi. Lekin jahondan yetgan har xil alamlarni olimlar va shoirlarning suhbatida bo‘lish bilan biroz tarqatar edim”.

Bu so‘zlardan ma'lum bo‘ladiki, shoir yoshligidan ilmga tashna va tirishqoq bo‘lgan. U yoshligidan yaxshi ta'lim olgan, arab va fors tillarini mukammal o‘rgangan, tarix ilmidan puxta xabardor bo‘lgan alloma sifatida tanilgan edi. Ogahiy

mohir tarjimon sifatida Mirxodning "Ravzat-us-safo" asarining 2-3-jildlarini, Muhammad Mahdixonning "Nodirnoma", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Sadiy Sheroziyning "Guliston", Husrav Dehlaviyning "Haft bihisht", Jomiyning "Yusuf va Zulayho", "Solomon va Obsol", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tazkirayi Muqimxoniy", Nizomiddin Ahmad Harafiyning, "Taboqati Akbarshohiy" asarlarini fors tilidan o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Ogahiyning barcha sherlaridagi bosh mezon ijtimoiy-hayotiy mavzudir. Xiva xonligida devonbegi vazifasida ham faoliyat yuritgan. Shuningdek uning siyosiy faoliyati miroblik bilan bog'liqligi bois, xalqning ijtimoiy hayoti bilan qiziqqan, farovon yashashi uchun jon kuydurib, ko'p islohotlar o'tkazishda bosh-qosh bo'lgan. Abu Rayxon Beruniy nomidani Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida Ogahiyning 2 nusxa qo'lyozma devoni saqlanmoqda. Devon qisqacha so'z boshi bilan boshlanib, Ogahiy unda, o'zining hayoti va ijodi haqida yozadi. Shunindek, devonda uning g'azallari ham berilgan. Ogahiy devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o'rin egallagan. Alloma o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan, badiiy umumlashtirganda zamon va uning ahliga munosabat bildirib, baho berib, insonparvarlik, xalqparvarlik nutqai nazaridan yondashgan.

Devondagi she'rlarning aksariyati lirik she'rlar bo'lib, muhabbat mavzusi va lirik qahramon kechinmalariga oid she'rlar katta o'rin egallagan. Ogahiydek buyuk shoirning merosini o'rganish, ijodini tahlil etish, undagi mazmun mohiyatini anglash hamda keyingi avlodlarga yetkazish bugungi adabiy kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ogahiy miroblik vazifasi bilan safarda yurgan vaqtida, otdan yiqilib oyog'i sinadi. Oradan ko'p vaqt o'tgach u butunlay yura olmay qoladi. Uzoq vaqt xastalikni boshidan kechirishi yolg'izlik va muxtojlikda yashashi shoirning hayotdan erta ko'z yumushiga olib keldi. Ogahiy xonlikda ulkan o'zgarishlar bo'layotgan bir paytda 65 yoshida hayotdan ko'z yumadi. Adib hozirgi kunda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'idagi Shayx Movlon bobo qabristoniga dafn etilgan bo'lib, uning qabri amakisi Shermuhammad Munis qabri bilan yonma-yondir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Muhammad Rizo Erniyozbey o'g'li Ogahiy ham nazmda, ham nasrda barakali ijod etgan shoir va tarixchidir. Ogahiy ijodi o'ta serqirraligi va hajmiga ko'ra Alisher Navoiy ijodiga qiyoslanadi, ya'ni shoirning ijodi ko'lami jihatidan Navoiydan keying o'rinda turadi. Ogahiydan bizga besh yuzga yaqin g'azal, mumtoz she'riyatimizning o'nlab boshqa janrlarida yozilgan muxammas, musaddas, ruboiy, tuyuq, qit'a, qasida, fors tillarida bitilgan she'rlari, ko'plab tarixiy asarlari hamda tarjimalari yetib kelgan bo'lib, bu asarlar 6 jildlik kitob holida chop etilgan.

Shoir umri davomida 6 ta tarixiy asar bitgan:

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

1. "Firdavs ul Iqbol"
2. "Zubdat ut-tavorix"
3. "Riyoz ud-davla"
4. "Shohidi Iqbol"
5. "Jome- ul - voqeoti- sultoniy"
6. "Gulshani davlat"

Alloma g'azallarida an'anaviy ishq mavzusi, yorning go'zalligini tasvirlash, uni madh etish, oshiq dardlarini badiiy uslubda bayon etgan, Vatanga muhabbat, hukmdor ega bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlar hamda u yiroq bo'lishi kerak bo'lgan illatlar haqida ham go'zal misralar yozgan. Ogahiy ijodining mavzu doirasi juda keng.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020- yil 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'ida barpo etilgan "Adiblar xiyoboni"ga tashrif buyurdi. Adiblar xiyobonini adabiyot, ma'rifat va madaniyat maskaniga aylantirish, har bir adib haykalini muayyan oliy o'quv yurtiga biriktirib, bu yerda ochiq darslar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berildi. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining jamoasiga Ogahiy haykali biriktirildi. Ulkan meros qoldirgan shoirning ijodini har tamonlama o'rganish va tahlil etish, yurtimiz ravnaqi uchun adib g'oyalarining ahamiyatini o'rganish na faqat sharqshunoslik universiteti jamoasining, balki barcha o'zbek yoshlarining oldidagi vazifalardan hisoblanadi.

Shunday qilib, Ogahiy o'z ijodida, bir tomondan, ko'p qirrali ma'rifatparvar mutafakkir, fors, arab, turk tillarni mukammal bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan, u alohida qalb sirlarini kashf etuvchi shoir, abadiy ishq-muhabbatni kuylagan o'z davrining g'azal sultoni sifatida g'aydalanadi. Mana shu xislatlar shoir lirikasida uyg'unlashdi, o'z ifodasini topdi. Shuning uchun ham Ogahiy g'azallari xalq xotirasida yashab kelmoqda, sevilib o'qilmoqda, ohanga solinib kuylanmoqda, ziyo va ezgu tuyg'ular manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Xanuzgacha hassos shoir g'azallari kitobxon hissiyotining nafis torlarini to'yengil chertib o'tadi, to'jona'nbushga soladi. Kelajak avlodlar ham, ishonamiz, shoirning ijod chashmasidan bahramand bo'lib, qayta qayta unga murojaat qilishadi, she'rlarini yod olishadi, chiroyli kuylarga solishadi, chunki shoirning merosi barhayot.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ogaxiy Muhammad Rizo. Oshiq o'lding, ey ko'ngul. G'azallar, ruboiylar, tuyuqlar, muxammaslar. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2016.
2. Hojiahmedov Anvar. She'r san'atlarini bilasizmi? "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxriyati. Toshkent-2001.
3. Qur'oni Karim Tarjima va tafsir muallifi shayx Ablulaziz Mansur.-Toshkent:
4. Sano- standart, 2019.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

5. Xallieva Gulnoz. Ogahiy musammatlari. Monografiya. Toshkent “MUMTOZ SOZ”, 2019.
6. Haqqul I. Tasavvuf va Ogahiy she'riyati/ Hayot ,adabiyot va abadiyat.-T: Tafakkur, 2019.
7. Ogahiy. Jamoling jilvasi. Toshkent . 2016
8. Мухаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. V жилд. Тарихий асарлардан парчалар. Тошкент 1978
9. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
10. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
11. Kalandarova, Dilafruz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
12. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
13. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma’rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
14. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim “Yilon”, “Maqar”, Kholiyor Safarov “Honor and Life”, “Wingless Birds”, “The Saddest Joy”)." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.